Toshkent – Farg‘ona – Toshkent yo‘nalishi bo‘yicha muntazam aviaqatnovlar

2022 28 Mart

«Uzbekistan Airways» AJ Toshkent – Farg‘ona – Toshkent yo‘nalishi bo‘yicha muntazam aviaqatnovlarni amalga oshirayotganligini eslatib o'tadi. Aviaqatnovlar haftada uch marta chorshanba, shanba va yakshanba kunlari amalga oshiriladi.

Toshkent – Farg‘ona yo‘nalishi bo‘yicha aviachipta narxi 100 949 so‘mdan (bagajsiz) va 113 567 so‘mdan (bagaj bilan), Toshkent – Farg‘ona – Toshkent yo‘nalishi bo‘yicha esa 176 660 so‘mdan (bagajsiz) va 201 897 so‘mdan (bagaj bilan) boshlanadi.
Narxlar 28.03.2022 holatiga ko‘ra amal qiladi.

Aviachiptalarni aviakompaniyaning rasmiy saytidan, Uzbekistan Airways Sales filialidan yoki aviakompaniya agentlaridan xarid qilib olish mumkin.